



---

«O'zagrosug'urta» AJ  
Kuzatuv kengashining  
2022 yil «30» noyabrdagi  
9 - sonli yig'ilishi  
bayonnomasiga 3 - ilova

**“O'zagrosug'urta”  
aksiyadorlik jamiyatining  
2023-yil uchun  
BIZNES-REJASI**

**Toshkent – 2023**

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>3-bet</b>
<b>I. Sug‘urta faoliyati.....</b>	<b>3-bet</b>
<b>II. Jamiyatda transformatsiya va IPO jarayoni.....</b>	<b>8-bet</b>
<b>III. Jamiyatni 2023-2025 yillarda strategik rivojlantirish.....</b>	<b>9-bet</b>
<b>IV. Investitsiya faoliyati.....</b>	<b>9-bet</b>
<b>V. Kadrlar siyosati.....</b>	<b>11-bet</b>
<b>VI. Sug‘urta faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.....</b>	<b>14-bet</b>
<b>VII. Qayta sug‘urtalash faoliyati.....</b>	<b>14-bet</b>
<b>VIII. Jamiyat Biznes-rejasining prognoz ko‘rsatkichlari.....</b>	<b>15-bet</b>

## **“O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil uchun BIZNES-REJASI**

### **Kirish**

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayoniga hamohang tarzda sug‘urta sohasini barqaror rivojlantirish, aholini sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish maqsadida sohada olib borilayotgan izchil davlat siyosatini yangicha yondoshuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. “O‘zagrosug‘urta” AJni rivojlantirishning 2023 yil uchun mo‘ljallangan biznes rejasini (keyingi o‘rinlarda – biznes reja) ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur biznes rejaning asosiy maqsadi “O‘zagrosug‘urta” AJning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro sug‘urta bozoriga chiqish, sug‘urta sohasida davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- sug‘urta faoliyatini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish;
- ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari qamrovini oshirish va sifatini yaxshilash, Iqtisodiyotning tarcha tarmoqlarida, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiruvchilariga sifatlari sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatilishining, tabiiy ofatlar natijasida ko‘riladigan zararlarni to‘laroq qoplanishini ta’minlash borasidagi maqsad va vazifalar, ustuvorliklari va uni rivojlantirish bosqichlarini belgilaydi va ushbu sohada dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- sug‘urta bozorini isloh qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-soni qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini jadal rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da 2023 yil uchun belgilangan va mazkur Strategiyaga qo‘srimcha sifatida ishlab chiqilgan tadbirlarni amalga oshirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 oktyabrdagi PQ-5265-sonli “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan 2021-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasining hayot sug‘urtasi sohasini hamda shaxsiy sug‘urta turlarini rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da 2023 yil uchun belgilangan tadbirlarni ijrosini ta’minlash.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 5 dekabrdagi “Elektron turdagini sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash xaqida”gi qarori ijrosini tam‘inlash maqsadida ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish, shaffofligini ta’minlash, sug‘urta da‘volarini onlayn tarzida ko‘rib chiqish mexanizmini yaratish orqali mijozlarga qulayliklar yaratish yuzasidan tezkor vazifalarni amalga oshirishdan iborat.

“O‘zagrosug‘urta” AJning rivojlanishi mazkur Biznes-rejaning 1- ilovasida belgilangan asosiy ko‘rsatkichlar va indikatorlarga erishishga asoslanadi.

### **I. Sug‘urta faoliyati**

Jamiyatning **2023 yil** sug‘urta faoliyatini rivojlantirish uchun muhim yo‘nalishlar aniq belgilab olindi. Sug‘urta faoliyatining yangi bosqichida mijozga

yo‘naltirilgan, zamonaviy va yangi usullardan foydalangan holda sifatli xizmat ko‘rsatishni joriy etish asosiy ustuvor maqsad qilib belgilanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi:

- **ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlarini takomillashtirish va soddalashtirish;**
- **sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishning yangi usullaridan foydalangan holda sotuv jarayonini rivojlantirish va xizmat sifatini yaxshilash yo‘nalishida;**
- **zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sug‘urta xizmatlari ko‘rsatilishini raqamlashtirish yo‘nalishida;**
- **amaldagi majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarini takomillashtirish.**

Yuqorida yo‘nalishlar doirasida 2023 yilda Jamiatning umumiy sug‘urta sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ustuvor vazifalar:

**Ixtiyoriy                  sug‘urta                  mahsulotlarini                  takomillashtirish**  
**va soddalashtirish yo‘nalishida:**

- jismoniy shaxslarning hayoti va salomatligi, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki hamda faoliyati bilan bog‘liq xatarlardan sug‘urta qilishning kompleks turlarini ishlab chiqish, alohida holatlarda mikrosug‘urtalashni amaliyotga tadbiq etish;

- bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, sug‘urta mahsulotlarini xalqaro standartlar va hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish maqsadida mavjud sug‘urta turlari va sug‘urta polislarini qayta ko‘rib chiqish va tahlil qilish, zarur hollarda qoidalar va shartlarga o‘zgartirish kiritish;

- sug‘urta mahsulotlarining turlari va ommaviyligidan kelib chiqib sug‘urta tariflarini qayta ko‘rib chiqish;

- mehnat migrantlarini sug‘urtalash qamrovini oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

- sug‘urta shartnomalari tuzilishi jarayonida anderrayting rolini oshirish.

**Majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarini takomillashtirish yo‘nalishida:**

Majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta qamrovini oshirish va Jamiatning bozordagi o‘rnini mustahkamlash borasida 2023 yil davomida Jamiat tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

- sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasi, Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2023 yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha yagona axborot tizimi negizida barcha majburiy sug‘urta polislarini ro‘yxatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi avtomatlashtirilgan Yagona axborot tizimiga Jamiatning “agros\_online” tizimini integrallashtirish;

- barcha majburiy sug‘urta shartnomalarni onlayn E-polis orqali rasmiylashtirish va hisobini yuritishni avtomatlashtirish;

- to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasi bilan TVEFJMS qilish bo‘yicha onlayn tarzda yagona axborot tizimini yanada takomillashtirish;

- xodimlar va agentlar malakasini oshirishga qaratilgan seminarlar o'tkazish, shuningdek sug'urta qoidalari shartlarini mijozlarga tushuntirish ishlarni tashkil etish;
- agentlik shoxobchalarini ko'paytirish.

### **Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi (TVEFJMS)**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5265-qarori ijrosini taminlash yuzasidan 2023 yilda barcha majburiy turlari bo'yicha sug'urta polislarini qog'oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilish va elektron E-polis sotish tizimini tashkil etish.

Ma'lumki, Respublikaning ayrim hududlarida TVEFJMS bo'yicha ulushi o'rtacha miqdordan past bo'lib qolmoqda. Mazkur hududlardagi ishlarni takomillashtirish va sug'urta qamrovini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlari olib boriladi.

2023 yilda TVEFJMS bo'yicha elektron E-polisni rasmiylashtirishda billing tizimini ishga tushiriladi, shu bilan birga amaldagi qonunchilik va normativ huquqiy xujjalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar berib boriladi.

### **Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi (IBFJMSQ)**

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda uning hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish.

IBFJMSQ sug'urta turidan Jamiyat Yagona axborot tizimini O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bazasi bilan to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi orqali integratsiyalash.

Tijorat takliflari yo'llash va/yoki E-tenderlarda ishtiroy etish orqali respublikadagi yirik ish beruvchilar bilan shartnomalar imzolash.

### **Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish**

Ushbu sug'urta turi bo'yicha qo'yilgan maqsadga erishish va bozordagi o'rnnini mustahkamlash borasida 2023 yil davomida Jamiyat tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

- respublikadagi mavjud yirik mijozlarni aniqlash va yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar hamkorlik shartnomalarini imzolash;
- O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida tashuvchining majburiy fuqarolik javobgarligini sug'ortalashni yanada rivojlantirish va to'liq darajada qamrab olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va mas'ul tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

### **Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini majburiy sug'urta qilish**

O'zbekiston Respublikasi Davlat sanoat xavfsizligi qo'mitasi bilan hamkorlikda hududlardagi davlat reestrlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xavfli ishlab

chiqarish obyektlari hisobi asosida xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergen holda boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda majburiy sug‘urta shartnomalarini tuzishni tashkil etish.

**Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishning yangi usullaridan foydalangan holda sotuv jarayonini rivojlantirish va xizmat sifatini yaxshilash yo‘nalishida:**

- Jamiyat rasmiy veb-saytini mobil qurilmalarga moslashtirish, mijozlar uchun qulay va sodda onlayn sug‘urta polislari xaridi jarayonini ishlab chiqish;
- aholi gavjum bo‘ladigan joylar, ijtimoiy va savdo obyektlarida onlayn polis sotib olishga yo‘naltiruvchi QR-kod o‘rnatish;
- tyezkor pochtalar bilan hamkorlik qilish, ushbu tashkilotlar bilan sug‘urta agenti xizmati bo‘yicha shartnoma imzolash va jamiyat sug‘urta xizmatlarini targ‘ib qilish;
- bank-sug‘urta yo‘nalishini rivojlantirish, banklar orqali sug‘urta polislarini sotish turlarini ko‘paytirish;
- sug‘urta shartnomalarini tuzish jarayonida xizmatlar taqdim etilgunga qadar va taqdim etilgandan keyingi davrlarda ham mijozlar bilan domiy aloqani saqlash mexanizmini joriy qilish;
- Jamiatning mijozlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga kiruvchi “front ofis” xodimlarini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda sug‘urta faoliyatidagi bilimlarini yanada mustahkamlash, ularga yangi sotish usullarini o‘rgatish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish etikasini joriy etish;
- mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tajribani o‘rganish va Jamiat faoliyatiga tadbiq etish yuzasidan xalqaro seminar va forumlarda ishtiroy etish;
- amaliyotga joriy etilgan “Yevroprotokol” tamoyili asosida da’volarni ko‘rib chiqishda sug‘urta qildiruvchilarga tezkor va sifatli xizmat ko‘satish maqsadida sodir bo‘lgan YTH bo‘yicha voqeа joyiga kompaniyaning ishonchli vakillarini (adjaster) jalb qilish va IIB YXHB xodimlari aralashuvvisiz YTH hujjatlarni rasmiylashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishning xorijiy tajribaga asoslangan yangi zamonaviy usullarini joriy qilish.

**Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sug‘urta xizmatlari ko‘rsatilishini raqamlashtirish yo‘nalishida:**

- E-polis tizimi orqali sotiladigan sug‘urta mahsulotlari turlarini kengaytirish. Mazkur tizim orqali jismoniy shaxslar bilan bir qatorda yuridik shaxslar tomonidan ham sug‘urta polislarini harid qilish imkoniyatlarini joriy etish, 2023 yilda E-polislar sonini 60 taga yetkazish;
- elektron to‘lov tizimlari (Click, Payme va boshqa) bilan sug‘urta polislarini sotishning yangicha usullarini ishlab chiqish;

- Jamiyat tizimida amalda bo‘lgan ommaviy sug‘urta turlarini bosqichmasbosqich E-polis tizimiga o‘tkazish hamda sug‘urta polislarini sotish jarayonida Billing tizimini kiritish;

- “Uzagrosonline” yagona elektron axborot tizimi to‘liq va to‘g‘ri ishlashini ta’minlash, doimiy ravishda takomillashtirish; sug‘urta portfeli ma’lumotlari sifatini nazorat qilish va ularni qayta ishlash orqali sug‘urta shartnomalari davriyligini ta’minlash.

**Mijozlarga sug‘urta tovonlarini to‘lash jarayonini tezkorligini ta’minlash maqsadida sug‘urta da’volarini ko‘rib chiqish jarayonini innovatsion tizimini joriy etish yo‘nalishida:**

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 5 dekabrdagi “Elektron turdag‘i sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2023 yilning 1 iyuliga qadar Sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasi tomonidan ishlab chiqilgan yagona mobil ilova orqali boshqa majburiy va ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta da’volariga oid arizalar onlayn ko‘rib chiqilishini o‘rta xizmatlarini raqamlashtirish, shaffofigini ta’minlash, sug‘urta da’volarini onlayn tarzida yuborilishini va ko‘rib chiqilishini amaliyotga joriy etish;

- yagona mobil ilova orqali shakllantirilgan ma’lumotlar bazasi orqali to‘lab berilgan sug‘urta toponi ma’lumotlari yuzasidan monitoring o‘tkazish tizimini joriy etish;

- sug‘urta da’volarini soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqish va ushbu jarayonni tezkorligini ta’minlash orqali mijozlarga qulayliklar yaratish.

**Jamiyatning asosiy ustivor yo‘nalshi hisoblangan qishlog xo‘jaligi mahsulotini yetishtiruvchilariga sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning yangi mexanizmini yaratish yo‘nalishida:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 5 dekabrdagi “Elektron turdag‘i sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini tam’inlash maqsadida “Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish;

- xorijiy kompaniyalarni jalb etgan holda, sinov tariqasida Farg‘ona vodiysida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni sug‘ortalash bo‘yicha pilot loyihani amalga oshirishda ishtirok etish;

- sug‘urta obyektining hududi, tabiiy va iqlim sharoitini, mavjud xatarlar hamda mahsulot turini inobatga olgan holda sug‘urta tariflarini belgilashni hamda qishloq xo‘jaligi subyektlari tomonidan yetishtiriladigan bo‘lg‘usi hosilni sug‘ortalash amaliyotini keng joriy etish;

- bo‘lg‘usi hosil sug‘urta polisi yoki hosilni garov ta’minoti sifatida qabul qilish mexanizmini joriy etish tartibini ishlab chiqishda qatnashish.

## **II. Jamiyatda transformatsiya va IPO jarayoni**

Jamiyatda iste'molchiga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv usullari, ochiqlik, shaffoflik va bozor tamoyillarini jadal joriy etish, tannarxni pasaytirish orqali daromadlarni oshirish, islohotlar jarayonida xususiy kapital ishtiroki uchun kengroq imkoniyatlar yaratish va raqobat muhitini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiyashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-sonli Farmoniga asosan "O'zagrosug'urta" AJ transformatsiya qilinadigan tashkilotlar ro'yxatiga kiritilgan.

Transformatsiya jarayonida Jamiyat tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, 2023 yil davomida ham bajariladigan vazifalar belgilangan. Xususan,

- 1.** Jamiyatning yangi nomi "Uzinsurance"ni aholi o'rtaida targ'ib qilish, bunda barcha filliallari va markazlari tashqi ko'rinishi yangilash, ommaviy axborot vositalarida Jamiyatning yangi nomini keng targ'ib qilish, bilbord va ekranlarda vizual reklama joylashtirish, internet, ijtimoiy sahifalarda maqsadli va kontentli reklama joylashtirish, SEO tizimini yo'lga qo'yish, rebrending bo'lganligini targ'ib qiluvchi ko'rsatuvarlar, videoroliklar tayyorlash;
- 2.** Jamiyatning xalqaro bozorida moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida Ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarish orqali oshirish;
- 3.** 2022 yil uchun moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari (IFRS) asosida tayyorlash hamda xalqaro audit xulosasi olish;
- 4.** Jamiyatning xalqaro bozordagi mavqeini oshirish uchun xalqaro reyting agentligi tomonidan beriladigan xalqaro reyting darajasini olish;
- 5.** Jamiyatda tannarxni pasaytirish maqsadida elektron polislar sotuvini jadallashtirish;
- 6.** Jamiyatda "muvofiglik tizimi" (komplayens) va korrupsiyaga qarshi kurashishga oid faoliyatni rivojlantirish;
- 7.** Jamiyat tizimida "Uzagros\_Online" yagona elektron axborot tizimini takomillashtirish;
- 8.** Jamiyat tizimida samarasiz hamda asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'limgan aktivlarni aniqlash, ularni xatlovdan o'tkazish hamda qonunchilikda o'rnatilgan tartibda sotish choralarini ko'rish. Bo'shagan pul mablag'larini rentabellik va likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan aktivlarga yo'naltirish;
- 9.** "Agros Hayot sug'urta kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini rivojlantirish va sug'urta mukofotlari tushumini ko'paytirish.

Shuningdek, Kapital bozorini yanada rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ko'paytirish, jismoniy va yuridik shaxslarning fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur Farmonning 4-

ilovasiga muvofiq 2021 – 2023 yillarda aksiyalari fond birjasi orqali ommaviy joylashtirilishi belgilangan korxonalar ro‘yxatiga “O‘zagrosug‘urta” AJ kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 avgustdag‘i “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish to‘g‘risida”gi 446-sonli qarorining ilovasiga muvofiq “2022-2023 yillarda davlat ishtirokidagi yirik jamiyatlar aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra 2023 yil davomida quyidagi ishlarni amalga oshirish:

1. Jamiyat aksiyalarini ommaviy joylashtirishga (“IPO”) tayyorgarlik ko‘rish;
2. Jamiyatning aksiyalari uchun dastlabki narx chegaralarini aniqlash;
3. Aksiyalarning qo‘srimcha chiqarilishini amalga oshirish, bunda “IPO” o‘tkazish va emissiya shartlarini tasdiqlash;
4. Obuna kompaniyasini amalga oshirish, bunda axborot hujjatlarini tayyorlash, obuna kompaniyasining grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash, “IPO” natijalarini sarhisob qilish bo‘yicha tadbirni tashkil etish;
5. “IRO” natijalarini sarhisob qilish.

Yuqorida belgilangan ishlarni amalga oshirish natijasida Jamiyatga chet el investorlarini jalb etish, xalqaro bozorda Jamiyat mavqeini mustaqamlash, Jamiyat moliyaviy barqororligini takomillashtirish choralar ko‘riladi.

### **III. Jamiyatni 2023-2025 yillarda strategik rivojlantirish**

“Ernst&Young advisory” QK MCHJ tomonidan Jamiyatning 2023-2025 yillar uchun rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda strategiyaning tuzilmasi eng yaxshi xalqaro tajribalardan foydalangan holda tayyorlangan.

Strategiyada 2023-2025 yillar uchun muhim maqsadlar belgilangan bo‘lib, 2023 yilda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

1. Tizimni raqamlashtirish bo‘yicha, elektron sug‘urta mahsulotlarini 69 taga yetkazish;
2. Faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha, sug‘urta mukofotlari hajmini 400 mlrd so‘mga, yangi sug‘urta mahsulotlari sonini 8 taga yetkazish;
3. Faoliyatning samaradorligi bo‘yicha, sof foyda ko‘rsatkichlarini 18,7 mlrd so‘mga, aktivlarning rentabelligini 5,4 foizga, kapitalning rentabelligini 17,5 foizga yetkazish;
4. Mijozlarga ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari sifatini, ya’ni NPS indeksni 5 foizga yetkazish.

### **IV. Investitsiya faoliyati**

Ma’lumki, Jamiyatning investitsiya portfeli sifati – to‘lov qobiliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, Jamiyat mablag‘larining yetarli hajmi mavjudligi uning to‘lov qobiliyati oshishini hamda faoliyat barqarorligini ta’minlaydi. Mazkur ko‘rsatkichlarga erishish uchun Jamiyat sug‘urta zaxiralaridagi mablag‘larni to‘g‘ri va foydali investitsiyaga yo‘naltirish muhim

ahamiyatga egadir.

Bunda, Jamiyat ixtiyorida majburiyatlardan tashqari ma'lum muddatga sug'urta zaxiralarida mavjud bo'lgan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qo'shimcha foyda olish maqsadida investitsiya qilish tushuniladi.

2022 yilda Jamiat o'z investitsiyaviy faoliyatini ayni kunda moliya bozorida daromadliligi yuqori bo'lgan bank sektorida olib borib, depozitlari va obligasiya daromadligi o'rtacha yillik 17-18 foizni tashkil qildi.

Jamiyatni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida investitsiya portfelidagi daromadi past bo'lgan qimmatli qog'ozlarni belgilangan tartibda sotish, ularni sotuvdan olingan mablag'larni boshqa yuqori daromadli investitsiyalarga yo'naltirish orqali Jamiatning depozit portfelinii oshirish maqsadga muvofiqdir.

Daromadi past bo'lgan aksiyalarni sotuvga chiqarish vazifasi Jamiatning 2022 yil uchun belgilangan Biznes-rejasida ko'zda tutilgan edi. Ammo, bugungi kunga qadar Jamiat investitsiya portfelidagi aksariyat aksiyalarning narxi ularning nominal qiymatidan past qiymatda bo'ldi. Shu sababli ushbu aksiyalar sotuvga chiqarilmagan.

Jamiyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida "O'zagrosug'urta" AJ o'z aktivlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2019 - 2022 yillarda O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini jadal rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagagi 68-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsion faoliyati to'g'risida"gi Nizomiga binoan joylashtiradi.

**2023 yilda Jamiat o'z investitsiya siyosatini** asosan tijorat banklarining muddatli depozitlari hamda boshqa daromadli investitsiyalarga yo'naltirishni rejalashtirgan.

Jamiyatning investitsion faoliyati rentabelligining prognoz ko'rsatkichlari hisob-kitobiga ko'ra bank depozitlariga investitsiyalar hajmining ko'payishi hisobiga daromadlar o'sishi prognoz qilinmoqda. Ushbu tendensiya kelgusi yillarda ham dolzarb bo'lishi kutilmoqda.

Shuningdek, 2023 yilda Jamiat o'z mablag'larini tijorat banklaridagi muddatli depozitlari bilan birgalikda mamlakatimizda chiqariladigan yuqori daromadli obligatsiyalar hamda tijorat banklaridagi xorijiy valyutadagi muddatli depozitlarga investitsiya qilish rejalashtirilgan.

Xususan, tijorat banklaridagi depozit mablag'lari hajmini **125,0 mlrd so'mga** yetkazish rejalashtirilgan.

Shu orqali foiz ko'rinishidagi **daromadlar hajmini 21,5 mlrd so'mga** yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning yirik aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini mahalliy fond bozorida birlamchi taklif orqali ommaviy joylashtirish ("IPO") ishlariga tayyorgarlik jarayonlari o'tkazilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-soni Farmoniga muvofiq **“O‘zagrosug‘urta” AJ aksiyalarini mahalliy fond bozorida birlamchi taklif orqali ommaviy joylashtirish (“IPO”)** vazifasi belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Jamiyat tomonidan “IPO” uchun konsultantlarni jalb qilish va tegishli hujjatlarni ishlab chiqish;
- aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini belgilash;
- aksiyalarning qo‘srimcha chiqarilishini amalga oshirish.

Shu bilan birgalikda, Jamiyat aksiyalarini mahalliy fond bozorida birlamchi taklif orqali ommaviy joylashtirish (“IPO”)ga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish davomida Jamiat Boshqaruvi organlari (Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi)da ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha zarur hujjatlarni tayyorlash va ularni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi tashkil etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Jamiyatning faoliyat ko‘lamini kengaytirishga, shuningdek, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish yo‘li bilan investitsiya faoliyati va investitsiya siyosatiga katta e’tibor qaratiladi.

## V. Kadrlar siyosati yo‘nalishi

Bugungi kunda, Jamiyat tizimida **861 ta shtat birligi** mavjud bo‘lib, jami ishlayotgan **xodimlar soni 667 nafarni** (*texnik xodimlardan tashqari*) tashkil etadi, shundan **466 nafari** (*61 foizi*) **oliy ma’lumotli**. Ularning 15 nafari sug‘urta (*3 foizi*), 195 nafari moliya, iqtisodiyot va soliq hamda 256 nafari boshqa soha mutaxassisliklariga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagagi PQ-4412-soni qaroriga muvofiq Jamiat tizimda samarali faoliyat yuritayotgan istiqbolli o‘rta va/yoki o‘rta maxsus ma’lumotiga ega bo‘lgan kadrlarni mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining “Sug‘urta ishi” ta’lim yo‘nalishida o‘qitish maqsadida:

- 2022-2023 o‘quv yilida 15 nafar xodim o‘qishga yuborilgan;
- 2023-2024 o‘quv yilidan bu ko‘rsatkich ikki barobarga yoki 30 nafargacha oshiriladi. Natijada, kelgusida Jamiat tizimida “Sug‘urta ishi” mutaxassisiligi bo‘yicha **oliy ma’lumotli kadrlar sonini 74 nafarga** (*15 foiz*) **oshirish** ko‘zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, **tizimda salohiyatli kadrlarni saqlab qolish, kadrlarni tayyorlash, “Ustoz – shogird” an’anasini yo‘lga qo‘yish, malakali kadrlarni jalb qilish** bo‘yicha quyidagi **3 ta** yo‘nalish bo‘yicha vazifalarni **ustuvor vazifa** sifatida belgilash taklif etilmoqda:

**1. Jamiatda faoliyat yuritayotgan mavjud salohiyatli kadrlarni saqlab qolib,** raqobatbardoshligini oshirish va rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

**2. Jamiat tizimi uchun malakali va yetuk kadrlarni tayyorlash hamda “Ustoz-shogird” an’anasini yo‘lga qo‘yish tizimini takomillashtirish.**

**3. Jamiyatga malakali shu jumladan, yosh, bilimli va istiqbolli kadrlarni jalgilish.**

**Kadrlar tayyorlash dasturiga muvofiq ustuvor vazifalarni amalga oshirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:**

**1. Jamiyatda faoliyat yuritayotgan mavjud salohiyatli kadrlarni saqlab qolib, raqobatbardoshligini oshirish va rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha:**

**1.1.** Jamiyat filiallari shu jumladan, sug‘urta markazlari faoliyat ko‘rsatkichlariga qarab **ish haqi fondini belgilashning yangi usulini** joriy etish.

Bunda, hududiy filiallar va sug‘urta markazlari faoliyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha **“Reyting baholash”** tizimi joriy qilinib, baholash yakunlaridan kelib chiqqar holda xodimga ish haqi va ustama belgilanadi.

**1.2.** Jamiyatda samarali faoliyat yuritayotgan xodimlarni ijtimoiy rag‘batlantirish **“Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash” paketini** joriy etish.

Bunda, tizimda samarali faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun tijorat banklari bilan o‘zaro kelishuv orqali imtiyozli ipoteka krediti va/yoki iste’mol kreditlarini ajratib borish loyihasi amalga oshiriladi.

**1.3.** Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash va **chet elda stajirovka** o‘tashini ta’minlash.

Bunda, istiqbolli va faoliyat yo‘nalishida natijadorlikka erishayotgan xodimlarni chet elga stajirovka o‘tashlari ta’minlanadi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi hamda Bank-moliya akademiyasida o‘qitaladi.

**1.4.** Jamiyat xodimlarining **faoliyat samaradorligini (KPI) onlayn baholash** tizimini joriy etish.

Bunda, Jamiyat tizimidagi barcha mas’ul xodimlarning faoliyat sohasi yo‘nalishidan kelib chiqib, xodimning ish samaradorligi baholanadi va yakunlari bo‘yicha moddiy rag‘batlantiriladi.

**2. Jamiyat tizimi uchun malakali va yetuk kadrlarni tayyorlash hamda “Ustoz – shogird” an’anasini yo‘lga qo‘yish.**

**2.1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-sonli qaroriga muvofiq, Jamiyat tizimida samarali faoliyat yuritayotgan istiqbolli o‘rta va/yoki o‘rta maxsus ma’lumotiga ega bo‘lgan kadrlarni **oliy ta’lim muassasalarining “Sug‘urta ishi” ta’lim yo‘nalishida o‘qitish.**

Bunda, 2022-2023 o‘quv yilida 15 nafar xodim oliy o‘quv yurtiga tavsiya etilgan bo‘lib, 2023-2024 o‘quv yilidan bu ko‘rsatkich ikki barobarga yoki 30 nafargacha oshiriladi.

**2.2.** Tajribali xodimlar bilan yosh mutaxassislar shu jumladan, stajirovka va amaliyot o‘tayotgan kadrlar o‘rtasida **“Ustoz – shogird” an’anasini** yo‘lga qo‘yish.

Bunda, har bir rahbar xodim uchun har 6 oyda 1 nafar yosh mutaxassislar biriktiriladi. Har bir rahbar xodim Jamiyat uchun har yili 2 nafar tajribali xodimni tayyorlaydi.

**2.3.** Moliya, bank, iqtisodiyot yo‘nalishlariga ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining malakaviy ishi himoyasida hamda “Karyera kunlari”da muntazam ishtirok etishni ta’minlash.

Bunda, sohaga ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari bitiruvchi bosqich talabalarining bitiruv malakaviy ishini qabul qiluvchi komissiya tarkibida hamda OO‘Yu tomonidan tashkil etilib kelinayotgan “Karyera kunlari”da ishtirok etib, bilimli mutaxassislar Jamiyatga jalb qilinadi.

### **3. Jamiyatga yetuk, istiqbolli mutaxassislarini tanlash va jalb qilish (Headhunting).**

Mutaxassislarni jalb qilishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish:

- xodimning ish haqi fondi va “Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash” paketini bozor iqtisodiyoti sharoitida jozibadorligini ta’minlash;
- xodimning kelgusidagi karyera va istiqboldagi muvaffaqiyatini kafolatlash;
- statusga ega lavozimga tayinlash;
- lavozimga mos vakolat, majburiyat va mas’uliyat berish.

## **VI. Sug‘urta faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqaml O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqaml O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish hamda “O‘zagrosug‘urta” AJ faoliyati axborot texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgan quyidagi loyihalarni bajarish ko‘zda tutilgan:

**1.** “O‘zagrosug‘urta” AJning rasmiy veb sayti – <http://agros.uz> negizida yaratilgan “Onlayn polis” platformasida sug‘urta polislar sonini yanada kengaytirish.

**2.** “Onlayn polis” platformasini mobil qurilmalarga moslashtirilgan shaklini ishlab chiqish;

**3.** “Onlayn polis” platformasini turlarini “Uzagrosonline” yagona elektron axborot tizimiga integratsiya qilish;

**4.** “Onlayn polis” platformasini tijorat banklari mobil ilovalariga integratsiya qilish bo‘yicha APIlar ishlab chiqish;

**5.** “Asakabank”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Mikrokreditbank” axborot tizimlarini “Uzagrosonline” yagona elektron axborot tizimiga integratsiya qilish;

**6.** “Migratsiya” axborot tizimini “Uzagrosonline” yagona elektron axborot tizimiga integratsiya qilish;

**7.** “Uzagrosonline” yagona elektron axborot tizimida yaratilgan “Bojxona” modulini modernizatsiya qilish;

**8.** “O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan masofadan turib ko‘rsatilayotgan xizmatlarni uzlusizligini ta’minlash maqsadida zamonaviy server, “Ma’lumotlarni saqlash tizim”larini xarid qilish, “Uzagrosonline” yagona elektron axborot tizimi hamda [www.agros.uz](http://www.agros.uz) rasmiy veb sayti va boshqa axborot tizimlarini serverga

ko‘chirish va uni “UZINFOCOM” yagona integratorining “Data center”iga joylashtirish.

## **VII. Qayta sug‘urtalash faoliyati**

“O‘zagrosug‘urta” AJ O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozori xalqaro reytingga ega kam sonli kompaniyalardan biridir. “Fitch Ratings Cis Ltd” xalqaro reyting agentligi tomonidan 2022 yil “O‘zagrosug‘urta” AJga “BB-” Barqaror reytingi berilgan.

Sug‘urta bozorida ushbu mavqeni saqlab turish va bu ko‘rsatgichni yanada yaxshilashning asosiy omillaridan biri bu maqbul (optimal) tashkil etilgan qayta sug‘urtalash mexanizmi hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib “O‘zagrosug‘urta” AJ respublika sug‘urta bozorining barcha ishtirokchilari va bir qator xorijiy xalqaro qayta sug‘urtalash brokerlari va sug‘urta kompaniyalari bilan qayta sug‘urta doirasida shartnomalar imzolagan.

Xususan, Jamiyatning hozirda quydagi xorijiy sug‘urta, qayta sug‘urta tashkilotlari va brokerlar bilan shartnomalari mavjud:

- “Hannover Re” qayta sug‘urtalash kopmaniyasi (Germaniya);
- “Swiss Re” qayta sug‘urtalash kopmaniyasi (Shvetsariya);
- “PICC P&C” sug‘urta kompaniyasi, “Kunlun Insurance Brokers Co., Ltd” sug‘urta brokeri (Xitoy);
- “PartnerRe” qayta sug‘urtalash kopmaniyasi (Niderlandiya);
- “Challenge Group-Insurance Consultantsand Brokers Limited” qayta sug‘urta brokeri (Rossiya);
- Lloyd’s Sug‘urta bozorining “Concilium Re” (Direct Insurance London MarketLtd.) sug‘urta brokeri (London, Buyuk Britaniya);
- “AON” qayta sug‘urta brokeri (Chexiya);
- “MOI Insurance Brokers Asia” brokerlik kompaniyasi (Qozog‘iston).

Qayta sug‘urtalash faoliyatini yanada rivojlantirish uchun Jamiyat 2023 yil davomida quydagilarni rejalashtirmoqda:

Jamiyat sug‘urta portfelidagi mavjud risklarni (qaltisliklarni) diversifikatsiyalash maqsadida dunyoning yetakchi qayta sug‘urta bozorlarining, jumladan Lloyd’s sug‘urta bozori (London) qayta sug‘urta kompaniyalari bilan mavjud hamkorlikni kengaytirib obligator qayta sug‘urta dasturlarini ko‘rib chiqish va maqbullarini tanlab olgan holda obligator qayta sug‘urta shartnomalarini tuzish;

xalqaro qayta sug‘urta kompaniyalari bilan uchrashuvlar va muzokaralar tashkil etish, qayta sug‘urtalashda o‘zaro manfaatli shartlar ishlab chiqish yo‘li bilan maxalliy va xorijiy sug‘urta, qayta sug‘urta va brokerlik tashkilotlari bilan aloqalarni mustaxkamlash;

Jamiyat ustav kapitalini ko‘tarish natijasida qayta sug‘urta sig‘imining oshishi bilan kiruvchi qayta sug‘urta mukofotlari hajmini oshirish va qayta sug‘urta hizmatlari sifatini yaxshilash, shu bilan birgalikda halqaro reytingni “A” darajaga ko‘tarish orqali Osiyo sug‘urta bozoriga kirib borish (Yaponiya, Xitoy, Singapur davlatlari qayta sug‘urta bozorlariga kirish uchun “A”dan kam bo‘lmagan xalqaro reyting darajasi talab qilinadi);

Qayta sug‘urtalash va halqaro munosabatlar Departamenti xodimlari bilim darajalarini tizimli oshirib borishga rivojlangan davlatlar sug‘urta bozori ishtirokchilari tashkil etayotgan konferensiya, seminarlar, uchrashuvlarda ishtirokini ta’minlash va shu kabi sug‘urta tashkilotlarida qisqa muddatli stajirovkadan o’tkazish orqali erishish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorini isloh qilish va rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-sonli Qaroriga muvofiq qayta sug‘urta sohasiga qo‘yilgan talablarning bajarilishini ta’minlash.

### VIII. Jamiyat Biznes-rejasining prognoz ko‘rsatkichlari

Sug‘urta faoliyatini samarali tashkil etishning muhim yo‘nalishlaridan biri rejalashtirish bo‘lib, quyidagilar uning asosiy bosqichlarini belgilaydi:

- strategik rejalashtirish – Jamiyat oldidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan asosiy strategik tashabbuslarni aniqlashga imkon beradi;
- byudjet (ko‘rsatkichlar) – Jamiyatning daromadlar va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari, opreativ rejalar timsolida Jamiyat strategiyasini amalga oshirishga yordam beradi;
- hisobotlar – Jamiyatning moliyaviy holatini, tashabbuskorlikni muvaffaqiyatini va biznes operatsiyalarining samaradorligini baholaydi;
- tahlil – zaif tomonlarni va yashirin imkoniyatlarni aniqlaydi.

Biznes-reja – asosiy maqsadlarni aks ettiruvchi keng qamrovli hujjat bo‘lib, aksiyadorlik jamiyatining rivojlanish strategiyasini va qabul qilingan qarorlarning maksimal samaradorligini ta’minlaydi. Uni ishlab chiqish jarayonida menejment, moliyalashtirish, marketing, vazifalarni taqsimlash va boshqa ko‘plab masalalar hal qilinadi, belgilangan reja ko‘rsatkichlariga muntazam ravishda tuzatishlar kiritiladi, Jamiyat faoliyatida yuz berayotgan o‘zgarishlarni uzlusiz nazorat qilish hamda baholash natijalari asosida rejani bajarish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi qayta ko‘rib chiqiladi.

Biznes-rejaning prognoz ko‘rsatkichlari (1-ilova) choraklar kesimida bir yilga tuziladi. Rejalashtirilgan davr uchun tasdiqlangan maqsadlar, Jamiyatning biznes-rejasi va uning asosida tarkibiy bo‘linmalarning kelgusi yilga mo‘ljallangan ish rejalari prognoz-ko‘rsatkichlarni tuzish uchun asos bo‘ladi.

Ko‘rsatkichlar balans usuli yordamida ishlab chiqilib, uning asosiy maqsadi moliyaviy rejalashtirishda daromadlar va xarajatlar nomutanosibligini oldini olish va eng maqbul variantni tanlab olishdir.

Prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli Qarori talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Daromadlar qismida sug‘urta mukofotlar tushumlari, kiruvchi qayta sug‘urta mukofotlari tushumlari, o‘tgan yildan o‘tuvchi sug‘urta zaxiralari, investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar, tashuvchi bo‘yicha sug‘urta sherikchiligi(puldan) olingan daromadlar va boshqa daromadlar aks ettiriladi.

Xarajatlar qismida sug‘urta xizmatlarining tannarxi, shu jumladan sug‘urta tovonlari, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta

qilish bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasiga ajratmalar, texnik zaxiralar, sug‘urta sug‘urta sherikchiligi (pul) xarajatlari, ish yuritish xarajatlari va boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

Jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlar prognozi quyida keltirilgan:

**1.** Sug‘urta mukofotlari tushumlarini – 2022 yilga nisbatan 25 % o‘sish bilan 400,0 mlrd so‘m miqdorida rejalashtirilgan. Ushbu o‘sish sur’atlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli qarori da ko‘zda tutilgan.

Sug‘urta mukofotlari hajmi:

- majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha – 54,6 mlrd. so‘m;

- qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini va korxonalar mol-mulkini sug‘urtalash bo‘yicha – 246,6 mlrd. so‘m;

- aholi salomatligi va mol mulkini sug‘urtalash bo‘yicha – 37,4 mlrd. so‘m;

- boshqa sug‘urta turlari bo‘yicha - 61,4 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

**2.** Ko‘rsatilgan sug‘urta xizmatlarining tannarxi - 174,7 mlrd. so‘m (o‘sish 76%),

shu jumladan:

**2.1.** Ish yuritish xarajatlari - 56,3 mlrd. so‘m (o‘sish 21%).

**2.2.** Sug‘urta tovonlari hajmi - 118,4 mlrd. so‘m (o‘sish 150%).

**3.** Sug‘urta javobgarligining hajmi – 111,4 trln. so‘m (o‘sish 20%).

**4.** Davr xarajatlari - 118,4 mlrd. so‘m (o‘sish 16%).

**5.** Moliyaviy faoliyatdan 20,7 mlrd. so‘m miqdorida daromad olish rejalashtirilmoqda.

**6.** Yuqoridagi ko‘rsatkichlarni bajarish maqsadida 1.500 ming dona shartnoma imzolash ko‘zda tutilgan.

**7.** Ushbu tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 18,7 milliard so‘m miqdorida sof foyda olinishi rejalashtirilmoqda.

2023 yilda foyda olishning asosiy manbaalari - sug‘urta mukofotlari hajmining 25 foizga oshirilishi hamda moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlardir.

Sug‘urta qonunchiligi talablariga muvofiq 2023 yilda Jamiyat tomonidan quyidagi texnik zaxiralarini shakllantirish davom ettiriladi:

- ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi (IMZ);

- sodir bo‘lgan, lekin, xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (SXZZ);

- xabar qilingan zararlar zaxirasi (XZZ);

- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasi bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (TVEFJMS BZ);

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasi bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ);

- tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasi bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi ( TFJMS BZ).

Birinchi hisob guruhi bo‘yicha ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi “pro rata temporis” usulida hisoblanadi. Ikkinci hisob guruhi bo‘yicha ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bazaviy sug‘urta mukofotlari miqdorida shartnomani amal qilish muddati to‘liq

tugagunga qadar aniqlanadi. To‘rtinchı hisob guruhi bo‘yicha ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati to‘liq tugagunga qadar bazaviy sug‘urta mukofotining 75 foizi miqdorida har bir shartnama bo‘yicha aniqlanadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasi bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug‘i balan tasdiqlangan va 2013 yil 8 fevralda Adliya vazirligidan 1882-3-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida”gi Nizomga kiritilgan o‘zgatirishlar va qo‘srimchalarga hamda O‘zbekiston Respublikaksining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq shakllantiriladi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasi bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha hisobot kunidan 36 oy oldin amalga oshirilgan sug‘urta tovonlari miqdoridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda shakllantiriladi.

Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi har bir sug‘urta turi uchun alohida, lekin har bir shartnama uchun bazaviy sug‘urta mukofoti miqdorining 10 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblanadi.

Jamiyatning sug‘urta portfeli tizimda joriy qilingan “Uzagros\_online” yagona axborot elektron tizimida yuritilib, sug‘urta zaxiralarini hisoblash jarayoni to‘liq avtomatlashtirilgan va kelgusida ushbu dasturiy ta’mimat doimiy ravishda takomillashtirilib, yangi modullar bilan to‘ldiriladi.

Barcha turlari bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta tovonining hisob-kitobi uch yil davomida amalga oshirilgan sug‘urta tovonlari dinamikasi asosida aniqlanadi.

Aholi mol-mulkini va shaxsiy sug‘urta turlarini rivojlantirish “O‘zagrosug‘urta” AJning ustuvor vazifalaridan biri deb belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4412-sonli Qarorida belgilangan asosiy vazifalar va yo‘nalishlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha aholi qamrovini oshirish, keng qamrovli sug‘urta xizmatlarini taqdim etish maqsadida yangi sug‘urta mahsulotlari ishlab chiqiladi hamda potensial sug‘urta qildiruvchilarning qiziqishini oshirish uchun sug‘urta tariflari muvofiqlashtiriladi. Tarif stavkalarining qulayligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta qildiruvchilar soni va sug‘urtalangan obyektlar soniga bog‘liq bo‘lib, sug‘urta qildiruvchilar soni va sug‘urtalangan obyektlar soni qancha ko‘p bo‘lsa, sug‘urta tarifi shuncha past bo‘ladi.

Bundan tashqari, “O‘zagrosug‘urta” AJ yirik kompaniyalar tomonidan taqdim etiladigan tavakkalchiliklarning ayrim turlarini sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urtalovchilar o‘rtasidagi tanlovlardacha (tenderda) ishtirok etadi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar prognozi quyidagi sabablarga ko‘ra o‘zgaruvchan deb hisoblanadi:

- tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha ta‘minlanadigan sug‘urta mukofotlari hajmini yuqori ehtimollik bilan rejallashtirishni imkoniy yo‘q, chunki TFJMS bo‘yicha sug‘urta sherikchiligi (puli) yaratilishi va sug‘urta mukofotlari hajmining oshishi sherikchilikda (pulda) qatnashadigan boshqa sug‘urta kompaniyalari faoliyatiga bog‘liqdir;

- Jamiyat investitsiya portfelini rentabellik darajasini oshirish maqsadida samarasiz qimmatli qog'ozlarni qonunchilikda o'rnatilgan tartibda sotuvga chiqarilish va ularni realizatsiya qilish holatiga bog'liq;

- tijorat banklari tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlarni qaytarilmaslik xavfini sug'urtalashda ta'minlanadigan sug'urta mukofotlari miqdorini yuqori ehtimollik bilan rejalashtirishni imkoniyati yo'q, chunki banklar tomonidan imtiyozli kreditlarni ajratish tartibi bo'yicha banklar kreditlarni qaytarishi bo'yicha sug'urtalashga majbur emasdirlar;

- ipoteka kreditlarni sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari hajmi banklar tomonidan ipoteka kreditlar ajratilishi bilan bog'liqdir;

- vositachilik xarajatlari qonunchilikda belgilangan miqdordan oshmagan holda belgilanib, sug'urta mukofotlari hajmiga va (sug'urta bozoridagi) raqobatni rivojlanish darajasiga bog'liqdir;

- ish yuritish xarajatlari miqdori sug'urta mukofotlari tushumiga mutanosibdir;

- sug'urta tovonlari hajmi ko'plab omillarga bog'liqdir, xususan, ob-havo sharoiti, hayvonlarning yuqumli kasalliklari, ekinlar kasalliklari va boshqalar.

“O'zagrosug'urta” AJ xarajatlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini tartibga solish imkoniyatiga ega. Rejadagi foydani olish uchun xarajatlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ham moddalar o'rtasida hamda umuman olganda, xarajatlarning umumiyligi miqdori bo'yicha o'zgartirilishi mumkin. Rejalashtirilgan sug'urta mukofotlariga nisbatan umumiyligi tushum va olinadigan foyda miqdorini hisobga olgan holda ham sug'urta turlari bo'yicha ham choraklar kesimida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2023 yil “O'zagrosug'urta” AJ faoliyatini transformatsiya qilish uchun muhim tayanch nuqtasiga aylanadi, bu esa Jamiyatnining 2023 yilda Biznes-rejani amalga oshirilishini ta'minlash bilan birga mamlakat sug'urta bozorida o'z mavqeini yanada mustahkamlash uchun zamin yaratadi, shuningdek xalqaro sug'urta bozorida ishtirok etishga keng yo'l ochadi.

**Jamiyatning 2022-2023 yillar uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari yuzasidan  
TAQQOSLASH JADVALI**

Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2022 yil (reja)	2022 yil (kutilayotgan)	2023 yil (prognoz)	2022yilga nisbatan o‘zgarishi (foizda)
Sug‘urta mukofotlari hajmi	mlrd.so‘m	320,0	320,1	400,0	125
Sug‘urta tannarxi, shu jumladan:	mlrd.so‘m	86,8	99,5	174,7	176
– sug‘urta to‘lovlari	mlrd.so‘m	44,5	47,3	118,4	250
– ishlab chiqarish xarajatlari	mlrd.so‘m	42,3	52,2	56,3	121
Sug‘urta javobgarligi	trln.so‘m	99,5	92,7	111,4	120
Davr xarajatlari	mlrd.so‘m	115,1	102,2	118,4	116
Sof foyda (zarar)	mlrd.so‘m	10,1	14,2	18,7	132